

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi
Navoiy davlat konchilik instituti

“Pedagogika va gumanitar fanlar” kafedrası

Referat

Fan: O`zbek tili

Mavzu: O`zbek va rus tillarida ot so`z turkumi

Topshirdi: 6-10 TM guruh talabasi Djurayeva D.

Qabul qildi: G`aniyev N.

NAVOIY-2011

O'zbek va rus tillarida ot so'z turkumi

Shaxs-predmet, narsa, voqea-hodisalarning nomini ifodalaygan mustaqil so'z turkumi ot deyiladi. Ular *k i m?*, *n i m a?*, *k i m l a r?*, *n i m a l a r?* kabi so'roqlardan biriga javob beradi: odam, chaqaloq, daraxt, bog', shaharlar, vafo, soflik, to'qlik, baxt, quvonch kabi.

Otlar ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish kabi morfologik xususiyatlarga ega. Masalan: Institutimizning talabalari: -imiz (egalik), -ning (kelishik), -lar (ko'plik), -i (egalik).

Atoqli otlar. Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan nomlarni ifodalaydi. Atoqli otlar bosh harf bilan yozilib, odatda, ko'plikda qo'llanmaydi. Masalan: Toshkent, Xorazm, Amudaryo, Pomir, «Saodat» jurnali.

Turdosh otlar. Turdosh otlar bir xildagi narsa va predmetlarning umumlashtiruvchi nomidir. Turdosh otlar atoqli otlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi. Masalan: qalam, daftar, maktab, kishi, bulbul, tog', ot, nur, baxt, sevinch.

O'ZBEK TILIDA EGALIK VA KELISHIK KATEGORIYASINING IFODALANISHI Egalik kategoriyasi

Otlarga qo'shilib predmet yoki predmetlik tushunchasini uch shaxsdan biriga taalluqligini, qarashligini yoki mansubligini ko'rsatuvchi qo'shimchalar egalik qo'shimchalari deyiladi.

Egalik qo'shimchalari predmetning biror shaxsga taalluqliligi jihatidan uchga, birlik va ko'plik sonda qo'llanishiga ko'ra ikkiga, ya'ni unli yoki undosh bilan tugagan negizga qo'shilishi xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

Eslatma: I. Egalik qo'shimchalari belgisiz qaratqich, tushim kelishigi qo'shimchasi kabi tushib qolmaydi (bizning hovli, bizning maktab kabilarni mustasno qilganda belgisi qo'llanadi).

1. Egalik ko'shimchasi bilan shakllangan so'z odatda o'ziga qarashli bo'lgan so'zdan keyin turadi; bizning uyimiz.

2. Egalik qo'shimchasini shaklan o'xshash bo'lgan so'z yasovchi –im (terim, bilim) qo'shimchasidan farqlash lozim.

II. *q* yoki *k* bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasini qo'shilganda, *q* tovushi *s* tarzida, *k* esa *g* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: o'rtoq – o'rtog'im, qishloq – qishlog'im, yurak – yuragim, bilak – bilagim.

So'nggi yopiq bo'g'inida *i* yoki *u* unlisi bo'lgan ba'zi so'zlar egalik qo'shimchasi qo'shilganda oxirgi (yopiq) bo'g'indagi *i* yoki *u* talaffuz etilmaydi va yozilmaydi: o'rin – o'rnim, singil – singlim, burun – burni, og'iz – og'zi.

Kelishik kategoriyasi

Har ikki tilda ham oltita kelishik mavjud bo'lib, otlar ana shu kelishiklar bo'yicha turlanadi. O'zbek va rus tillaridagi kelishiklar o'rtasida qisman o'xshashlik mavjud. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

Именительный падеж: *кто? что?*

Родительный падеж: *кого? чего?*

Дательный падеж: *кому? чему?*

Винительный падеж: *кого? что?*

Bosh kelishik: *kim? nima? qayer?*

Qaratqich kelishigi: *kimning? nimaning? qayerning?*

Jo`nalish kelishigi: *kimga? nimaga? qayerga?*

Tushum kelishigi: *kimni? nimani? qayerni?*

Demak, o`zbek tilidagi bosh, qaratqich, tushum va jo`nalish kelishiklari rus tilidagi именительный, родительный, винительный va дательный kelishiklariga mos keladi. Biroq rus tilida otlar *qayer?* so`rog`iga javob bo`lmaydi va o`zbek tilidagi kabi kelishiklar bo`yicha turlanmaydi. Rus tilidagi tvoritelniy hamda predlojniy kelishiklari o`zbek tilida, o`zbek tilidagi o`rin-payt va chiqish kelishiklari rus tilida mavjud emas.

Kelishiklarning ma`nolari

O`zbek va rus tillaridagi to`rt kelishik so`roqlariga ko`ra o`xshash hisoblansa-da, ma`noviy jihatdan o`zaro farqlanadi. O`zbek tilidagi bosh kelishikdagi so`zlar rus tiliga ma`nosiga ko`ra ayrim hollarda imenitelny padej shaklida, ba`zan esa roditelniy padej shaklida beriladi. Masalan: *Mening do`stim bor.* – *У меня есть друг;* *Mening do`stim yo`q.* – *У меня нет друга.*

Bosh kelishikdagi so`zlar har ikkala tilda ham ega hamda kesim vazifalarida kelishi mumkin. Masalan: *Navoiy – buyuk shoir.* *Навои – великий поэт.*

O`zbek tilida qaratqich kelishigi belgili ham, belgisiz ham qo`llanishi mumkin, rus tilida bunday hodisa uchramaydi. O`zbek tilidagi qaratqichli aniqllovchi rus tilida ham roditelniy padejdagi ot bilan ifodalanadi, biroq bunda so`z tartibi o`zgargan bo`ladi: *mustaqillik yillari–годы независимости, shahar hokimiyati–хокимият города, universitet binosi–здание университета, talabalar yig`ilishi–собрание студентов.* Bunday birikmalarda o`zbek tilida ko`pincha qaratqich kelishigi belgisiz qo`llanadi. Rus tilida bunday hollarda aniqllovchi vazifasida qo`llanayotan otni shu otdan yasalgan sifat bilan almashtirsa ham bo`ladi: *городской хокимият, университетское здание, студенческое собрание.*

Rus tilida roditelniy padejdagi ot predlog bilan yoki predlogsiz qo`llanishi mumkin. Roditelniy padejdagi so`zlar predlog bilan qo`llangan bo`lsa ham, predlogsiz ham o`zbek tiliga turlicha shaklar bilan tarjima qilinadi: *обложка книги* – *kitobning muqovasi, две книги* – *ikkita kitob, без книги* – *kitobsiz, выпить молока* – *sutdan ichmoq, сильнее меня* – *tendan kuchli, письмо от друга* – *do`stimdan xat, ради меня* – *men uchun, до меня* – *mengacha va hokazo.*

O'zbek tilidagi jo'nalish kelishigi ham, rus tilidagi datelniy kelishigi ham harakatning biror shaxs yoki predmet tomon yo'nalganligini bildiradi: *menga – мне, talabalarga – студентам.*

Ba'zi o'rinlarda o'zbek tilida jo'nalish kelishigidagi so'z rus tiliga ma'nosiga qarab, datelniy yoki vinitelniy padej shaklida tarjima qilinishi mumkin: **Maktabga** yangi darsliklar kerak. – **Школе** нужны новые учебники; **Men maktabga** bordim. – **Я** ходил **в школу.**

Rus tilida datelniy kelishikdagi ot shaxssiz fe'l yoki predikativlik xususiyatiga ega bo'lgan ravish bilan birikib kelsa, shaxssiz gap hosil bo'ladi. O'zbek tilida jo'nalish kelishigidagi otlar bunday xususiyatga ega emas. Shuning uchun bunday gaplar o'zbek tiliga tilimizning ichki qonuniyatlariga asosan tarjima qilinadi: *Маме не спиться.* (ayn. *Onamga uyqu kelmayapti*) – *Onamning uyqusi kelmayapti; Мне стало грустно.* (ayn. *Menga g'am keldi*) – *Men g'amgin bo'lib qoldim.*

Rus tilida jo'nalish kelishigidagi otlar predlogli ham, predlogsiz ham qo'llanadi. Ayrim hollarda **к** predlogli jo'nalish kelishigi o'zbek tilida quyidagicha ifodalanadi: *Я подошёл к другу.* – *Men do'stimga yaqinlashdim; Сегодня я пойду к другу.* – *Men bugun do'stimnikiga boraman.*

Tushum kelishigidagi so'zlar har ikkala tilda ham obyekt vazifasini o'taydi. Rus tilida tushum kelishigidagi ot, odatda o'timli fe'ldan keyin kelib, turlicha tugalmalarni oladi (bu otning rodi, soni, jonli yoki jonsiz predmetni ifodalashi bilan bog'liq). Shuningdek, vinitelniy padejdagi otlar predlog bilan va predlogsiz qo'llanishi mumkin. Bunday otlar ishtirokidagi birikmalar o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi: *любить Родину* – *Vatanni sevmoq, сражаться за Родину* – *Vatan uchun kurashmoq, испечь хлеб* – *non yormoq, экскурсия в Бухару* – *Buxoroga sayohat, держать под руку* – *qo'ltig'idan ushlamoq, попасть под дождь* – *yomg'ir tagida qolmoq, пришёл под утро* – *tongga yaqin keldi, пришёл через неделю* – *bir haftadan keyin keldi.*

O'zbek tilida tushum kelishigidagi so'zlar ham qaratqich kelishigidagi kabi belgili va belgisiz qo'llanadi. Tilshunos Sh.Rahmatullaev bu hodisani «o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida ro'yobga chiqqan juda katta qulaylik» sifatida baholaydi. Olimning fikriga ko'ra, tilimizdagi qulayliklardan yana biri bu kelishik va egalik qo'shimchalarining uyushiq bo'laklarning yolg'iz oxirgisigagina qo'shilishidir (mas. *kitob, daftarlaringizni yig'ishtiring.*) Bunday imkoniyatlar rus tilida yo'q.

O'zbek tiligagina xos bo'lgan o'rin-payt va chiqish kelishiklaridagi otlar rus tilida turli grammatik vositalar bilan beriladi. Masalan: **Men universitetda** o'qiyman. – *Я учусь в университете* (bunda **в** predlogi bilan otning predlojniy kelishik shakli berilgan); **Bahorda** yurtimizda Navro'z bayrami nishonlanadi. – **Весной** в нашей стране отмечается праздник Навруз. (bunda ot tvoritelniy kelishik shaklini hosil qilgan); **Do'stimda** yurtimiz tarixiga oid kitoblar ko'p. – *У моего друга* много книг об истории нашей страны. (bunda ot **у** predlogi bilan roditelniy padejda qo'llangan); **Kecha akam Toshkentdan** keldi. – *Вчера мой брат приехал из Ташкента.* (chiqish kelishigidagi so'z predlogli qaratqich kelishigi bilan ifodalangan); **Sayohatchilar tog' yo'lidan** borishar edi. – *Туристы шли по горной дорожке.* (chiqish kelishigidagi so'z predlojniy kelishikda berilgan); **O'qituvchilar Rustamdan** mamnun edilar. – *Преподаватели были довольны Рустамом.* (bunda ot tvoritelniy kelishik shaklini olgan).

Rus tilidagi tvoritelny kelishigi o'zbek tilida quyidagicha ifodalanadi: 1) Rus tilida **чем? с кем?** so'roqlariga javob bo'luvchi otlar o'rnida o'zbek tilida bosh kelishikdagi ot va bilan ko'makchisi qo'llanadi: *Я рисую **карандашом** (чем?). – Мен **qalam bilan** chizaman. В библиотеку я ходил **с другом** (с кем?). – Kutubxonaga men **do'stim bilan** bordim;* 2) Rus tilida **кем?** so'rog'iga javob bo'ladigan ot o'zbek tilida **bo'lib, qilib** so'zlari

bilan birikib kelgan bosh kelishikdagi ot bilan beriladi: *Моя мама работает **учительницей** (кем?). – Она **o'qituvchi bo'lib** ishlaydi. Рустама выбрали **старостой** группы (кем?). – Rustamni **guruh sardori qilib** sayladilar;* 3) Rus tilida **кем?** so'rog'iga javob bo'luvchi ot **быть** fe'li bilan birikma holida

Ko'rib o'tganimizdek, kelishik kategoriyasi grammatik tuzumi jihatidan ham, boshqa xususiyatlariga ko'ra ham o'zbek va rus tillarida anchagina farqlarga ega, shuning uchun bu grammatik kategoriyani ikki til doirasida qiyosiy tahlil qilish uchun tilshunos bu tillarni yaxshi o'zlashtirishi lozim.

ABDULLA QAHHOR (1907-1968)



Taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor ixcham, sermazmun hikoyalarning, ajoyib romanlarning, dramatik asarlarning muallifidir. Uning «Sarob», «Qo'shchinor hiroqlari», «Shox so'zana», «Sinchalak» nomli asarlari mashhur bo'lib, bir qancha tillarga tarjima qilingan.

Abdulla Qahhor Qo'qon shahrida temirchi oilasida tug'ilgan Qo'qondagi «Kommuna» maktabini tamomlab, texnikumdan so'ng O'rta Osiyo davlat universitetida o'qidi. Bir necha ro'znoma oynoma redakqiylarida mas'ul xodim bo'lib ishladi. «O'zbekiston» davlat nashriyotida tarjimon va edaktor bo'lib ishladi.

Abdulla Qahhorning ijodiy faoliyati 1924-yildan boshlandi. Dastlab «Mushtum» jurnalida keyinchalik «Yangi Farg'ona», Qizil O'zbekiston» ro'znomalarida yozuvchining maqola va she'rlari, felyeton va hikoyalari bosila boshladi.

1930- yilda uning bir necha hikoyalar to'plami, 1937- yilda «Sarob» romani boqilib chiqdi. Bu romanda hayotda uchrab turadigan o'tmish sarqitlarini, kaltafahmliq o'jarliq laganbardorlik kabi illatlarni fosh etadi.

Yozuvchining «Qo'shchinor chiroqlari», «Sinchalak», «O'tmishdan ertaklar kabi prozaik asarlari», «Shoxi so'zana», «Ogriq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi sahna asarlari adabiyotimizning bebaho durdonalaridir.

So'z ustasi Abdulla Qahhor yetuk san'atkor va tarjimon ham edi. Uning ijodi yosh ijodkorlar, til shinavandalari uchun chinakam maktabdir.

Yozuvchining adabiyotimizga qo'shgan ulkan hissi uchun davlatimiz tomonidan bir qator Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Topshiriq.

1. Abdulla Qahhor qayerda va qanday oilada tug'ilgan?
2. Uning ilk ijodi boshlangan?

3. Abdulla Qahhor qanday asarlar yozgan?
4. 30- yillarda qanday prozaik asarlar yaratdi?
5. Uning sahna asarlarini bilasizmi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Rahmatullayev. O`zbek va rus tillarini qiyoslash. - T.: "O`zbekiston",1993-y.
2. O`.Sh.Shokirov, M.N. Alimjonova. O`zbek tili. T.:2004-y.
3. Yo.Hamrayeva, L. Elmurodova. O`zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Qarshi – 2007-y.
4. Nurmonov A. Sobirov A. Yusupova Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.: 2002-y.
5. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. T.:1987-y.